

## Ayol Ichki Dunyosi Tasvirlanishining Badiiy Talqini

Nodira Matmusaeva<sup>1</sup>

**Annotatsiya:** ushbu maqolada istiqlol davri tarixiy romanlaridagi yangicha uslub va talqin masalasi, tarixiy ayol shaxsining ichki va tashqi ziddiyatlari badiiy obraz talqinida ochib berilishi Shahodat Isaxonovaning “Bibixonim” romani misolida tahlil qilingan.

**Kalit so‘zlar:** istiqlol davri romanchiligi, hayotiy haqiqat, badiiy talqin, yangi tamoyil va uslublar, ruhiy ziddiyatlar, tarixiy ayol shaxsi, temuriy malikalar.

XXI asrga kelib, insoniyat hayotida tub madaniy burilishlar yuz berayotgan globallashuv fenomeni milliy adabiy jarayonga ham o‘z ta’sirini o‘tkazmoqda. Xususan, o‘zbek adiblari tomonidan adabiy-badiiy tafakkur an’analalariga sodiq qolgan holda, jamiyatda ro‘y berayotgan ijtimoiy-madaniy, ma’naviy-estetik o‘zgarishlarni ham qabul qilish, yangicha ijodiy-uslubiy yondashuvlarga dadil qo‘l urish holatlari muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Shahodat Isaxonovaning “Bibixonim” tarixiy-biografik romanida ana shu murakkab vazifa muvaffaqiyatli amalga oshirilganini kuzatish mumkin. 36 yillik buyuk sultanatning buhronlarga yuz tutishi, shahzodalar o‘rtasidagi turfa nizo va kelishmovchiliklar, tarafkashlik, xalq ruhiyatidagi tushkun kayfiyat, amaldorlar orasidagi ishonchsizliklar kabi tarixiy voqelik tasviridagi syujetlilik, rivoya ko‘lamdorligi, saroy hayotining qonuniyatlarini asosiy qahramonlar va ikkinchi darajali personajlar munosabatlari orqali yoritish, Bibixonim, Shod Mulk, Mironshoh Mirzo, Xalil Sulton xarakterlarini ochib berishdagi psixologik tahlil izchilligi, individual va ijtimoiy muammolar mushtarakligini uyg‘unlashtirish kabi xarakterli tasvir vositalari roman tabiatini belgilaydi.

Sh.Isaxonova qahramon xarakterini yaratishda uning hayotidagi eng muhim qirralarni tasvirlash va uning fe’l-atvori, xatti-harakatlariga xos xususiyatlar shakllanishining ildizlarini ochib berish yo‘lidan boradi. Bu yo‘nalishdagi asarlarda epik tasvirdagi an’anaviylik masalasini makon, zamon va shaxs konsepsiysi, xilma-xil hayotiy voqeа-hodisalarini ishonarli tasvirlash, voqelikni turli rakurslarda aks ettirish imkoniyat va usullari dinamikasida kuzatish mumkin.

Munaqqid I.G‘afurov, ta’riflaganiday, Sh.Isaxonova “Bibixonim” romanida “Amir Temur davlati o‘ttiz olti yil o‘tib qattiq omonsiz larzaga tushgan va vafoti zilzilasi bois, to‘rt tomonidan darz ketgandagi shart-sharoit, hol-ahvollar hali-hamon odamni yarali o‘ylar va hayajonlarga soladigan millatning asil taqdiri bilan bog‘liq voqeа-hodisalarga nigoh tashlaydi.”<sup>2</sup>

Odatda, tarixiy shaxs obrazini yaratishda hayotiy haqiqat va badiiy to‘qima sintezida bu ikki talqinining uyg‘unlashuvi muhim ahamiyat kasb etadi va asar realizmini ta’minlashga xizmat qiladi. “Bibixonim” romanida Amir Temur, Xalil Sulton, Shod Mulk, Mirzo Ulug‘bek, Xonzoda begin, Sulton Husayn, Xoja Ahmad Tusiy singari tarixiy shaxslar obrazi bosh qahramon Saroymulkxonimning xarakter qirralarini to‘laqonli tasavvur qilish, ana shu obrazlar vositasida davr hayotini haqqoniy ko‘rsatish, xalqning ma’naviy qiyofasini ochib berishga ko‘maklashadi.

Rus adabiyotshunos olim A.N.Andreev keyingi paytlarda ilm-fan predmetiga aylangan inson haqidagi barcha intuitiv bilimlar uzoq vaqtlardan beri yozuvchilarining nazarida bo‘lib kelganligini e’tirof etadi. Tashqi ko‘rinish va temperamentlarning har qanday ilmiy tasnifi badiiy adabiyotda o‘z ifodasini osongina topadi, har bir mumtoz asar jonli gavdalantirgan shaxs tiplarini aytmasa ham bo‘ladi. Ko‘rinib turibdiki, psixologiyasiz insonning biron bir yaxlitligi haqida gapirib bo‘lmaydi. Olimning

<sup>1</sup> Andijon davlat universiteti O‘zbek tili va adabiyoti kafedrasи katta o‘qituvchisi, mustaqil-tadqiqotchi

<sup>2</sup> Fafuров И.Ўргада Бибихоним туар эди... // “Турон маликаси” романига сўнгсўз. Т.: Kamalak-Press, 2014.



qayd etishicha, **har bir buyuk psixolog yozuvchi bo'la olmaydi, lekin har bir buyuk yozuvchi buyuk psixologdir.** Psixologik nuqtai nazardan o'z-o'zicha talqin qilish o'quvchi uchun shunchalik muhimki, uni asarni idrok etishning alohida darajasi sifatida ajratib ko'rsatish mumkin.<sup>3</sup>

Ana shu nuqtai nazardan qaralganda, Bibixonimga xos qat'iyat, adolatpeshalik, sultanat, el-ulus manfaati uchun qayg'urish, har qanday vaziyatda ham o'zini qo'lga ola bilishi va oqilona yo'l izlashi kabi xislatlari oddiy ta'rifu tavsiflar bilan emas, balki voqelik jarayonida, o'zaro ziddiyatli munosabatlar zanjirida, dialoglar mazmunida berib boriladi.

*Bibixonim o'z go'shasi, o'z makonida xuddi mehmonlar kabi, balki undan-da qadrsizroq xuddi begonalarday, joy izlab Sanjar Barlosning ortidan ergashar ekan, uyat va alamdan yiqilib tushmaslik, hushdan ketmaslik uchun uzun yenglari ichida muzlab borayotgan miqti, oppoq barmoqlarini musht qildi.* ("Bibixonim" romani, 217-b.)

*Sohibqironning bevalari Bibixonimni ko'rib, xuddi najotkorlari kelganday, o'rinlaridan dast turishdi. Tuman Og'o ko'z yoshlarini tiya olmadi.*

➤ *Bu ne ko'rgulik, bibim? Sohibqiron hazratlariga, ul jannatmakonning ruhlarig'a izzat shulmu? - Tuman Og'o lablariga sizib tushayotgan yoshlarini sidirarkan, hasratli shivirladi.*

*Bibixonim ham qorachiglari yoshlanib, ko'ngli buzilayotgan bo'lsa-da, o'zini qo'lga oldi.* ("Bibixonim" romani, 221-b.)

Bizning etnomadaniy mentalitetimizda farzandsizlik muammosi hamma zamonlarda ham inson uchun og'ir mushkulot hisoblangan. Bibixonimdek buyuk malikaning ham bu borada baxti kulmagan. Ana shu psixologik yuk, ayniqsa, umrining so'nggi yillarda har qadamda uni ta'qib etadi. Ayniqsa, atrofidagilarning goh alamli, goh ta'nali eslatmalari malikani iztirobga solsa-da, ruhan kuchli ayol sifatida yurak tug'yonlarini oshkor etmaydi. Farzandidek mehr berib tarbiyalagan shahzodalarni hatto, o'z onalaridan ham himoya qilishga kuch topa oladi. Sh.Isaxonova malikaning ana shunday murakkab kechinmalarini ham kitobxonga yetkazib bera olgan.

*"Yolg'izingni yomonlasang, yotning mehri ko'tarilur", deydilar, Xonzodam, - og'rinib gapirdi Bibixonim. - Shahzoda Xalil Sultan sha'nig'a nomunosib so'zlar aytmog'ingiz aybdur.*

➤ *Farzandining kimlig'ini onadin o'zga yaxshi bilmas. Zero, olmaning tagiga olma tushar, zinhor behi tushmas erkan, bibim...*

*Garchi Bibixonimga Xonzoda beginning "Onadan boshqa yaxshi bilmas", degan so'zi og'ir botgan bo'lsa-da, dunyoga sig'may borayotgan bu ayolning so'zlarida haqiqat borligini qalban his etib turardi.* ("Bibixonim" romani, 249-b.)

Dunyo adabiyotshunosligida badiiy psixologizm qahramon xarakterini shakllantiruvchi yetakchi unsurlardan biri sifatida e'tirof etib kelinadi. Sh.Botirovaning fikriga ko'ra, badiiy psixologizmning barcha usul va vositalari orqali: a) qahramon ruhiyati ochib beriladi; b) personaj fikr-o'ylari, histuyg'ulari, xatti-harakatlari va nutqi individuallashtiriladi, psixologik asoslanadi. Badiiy psixologizm muayyan personaj ruhiyati tasvirida o'zaro qorishiq holda namoyon bo'lsa-da, ulardan biri dominantlik qilib, boshqalari esa shu yetakchi tamoyilni to'ldirib, konkretlashtirib keladi.<sup>4</sup>

"Bibixonim" romanidagi Shod Mulk xarakterida, aynan ana shu dominantlikning salbiy doirasi yaqqol ko'rinadi, malikaning xatti-harakatlarida doimo bo'rtib turadi. Yengiltabiat, xudbin, aqli qisqa, dunyoqarashi tor Shod Mulk o'zini buyuk malikaday his qilib, xatto sultanat ishlarida ham tizginni qo'lga olishga intiladi.

➤ *O'shalar mu saltanat ganji? Barchasi tekin tomoq alarning! - Shod Mulkning ovozidanmi yoki gapining mazmunidanmi o'tirganlarning hammasi birday qalqib tushdi. - Ishonmasangiz, taftish*

<sup>3</sup> Андреев А.Н. Лекции по теории литературы: Учеб. пособие для студентов вузов. - Минск: 2012.

<sup>4</sup> Ботирова Ш. Ҳозирги ўзбек романларида бадиий психологизм: филол.фанлари бўйича фалс.д-ри (PhD) дисс. Карши, 2019. – Б. 24



*natijalarini o‘zingiz o‘qib ko‘ring, bibim! Besh-o‘n varaq bitishg‘an almoysi-jalmoysi narsalarini aytmasa, tayinli biror bir ish qilishmag‘an, alar!!*

*Bibixonim Shod Mulkning gapidan qotib qoldi va unga javoban nima deyarini, qanday munosabat bildirarini bilmay, bir lahza kalovlandi. Uning gapini qayirib tashlab, munosib javob qaytarar, degan umidda bir Xalil Sultonga, bir o‘tirganlarga qaraganicha, sukul saqladi.*

*Shod Mulkning tomdan tarasha tushganday bu gapi hammani o‘ng‘aysiz holga solib qo‘yan, qizarib ketgan Xalil Sulton boshini xam qilganicha, "siz aralashmang", deganday Shod Mulkka norozilanib qarasa-da, hech narsa demadi. ("Bibixonim" romani, 325-b.)*

A.Nasirov “Odil Yoqubov romanlari poetikasi”ni tadtiq qilar ekan, “Ijtimoiy mohiyat har bir personajning hayot tarzi, yashash maydonini belgilab beradi. Jamiyat talabi va taqozosi yoxud taqdir hukmi inson xarakteri shakllanishida muhim rol o‘ynaydi”, - degan xulosaga keladi. Darhaqiqat, “Bibixonim” romanida ham Mironshoh Mirzo, Xalil Sulton, Shod Mulk obrazlari timsolida shu holat kuzatiladi.

Xalil Sultonning ruhiy holatidagi og‘ishlarga guvoh bo‘layotgan Bibixonimning ko‘nglidan kechayotgan o‘ylarning bir uchi bilvosita Shod Mulkning ta’siriga borib taqaladi. Shahzoda g‘ayrli ishq savdosi, ayol makrining qurbaniga aylangan edi:

*Bibixonim shahzoda Xalil Sultonning fe’lidagi bu noqisliklarni avvalroq ilg‘amaganiga hayron qoldi. Chunki bu qusurlar **oddiy** kamchiliklar emasdi. U qon bilan kirib, jon bilan chiqadigan, ya’ni, davosi yo‘q dard kabi faqat go‘r tuzatadigan mudhish illatlar edi.*

*Shahzoda mehr-muhabbatini go‘zal satrlarda ifodalaydigan nozik tabiatli xassos shoirdan, muloyim, iltifotli, bir kalima so‘z aytishdan oldin chuqur mulohaza qiladigan kamtar odamdan bir dumalab jizzaki, badjahl, qo‘rs va o‘z fikrini qay yo‘sin bilan bo‘lmasin, o‘tkazadigan manman bir gumrohga aylanib qolgan, aniqrog‘i, **uning chehrasidagi go‘zal niqob yo yirtilgan yoki yo‘qolgan kabi edi.** (“Bibixonim” romani, 322-b.)*

Xulosa qilib aytganda, “Bibixonim” romanida qahramonlar xarakteriga xos ko‘p jihatlar ularning xatti-harakatlarida, o‘zaro muloqotlarda, bir personajning boshqa biri haqidagi mulohazalarida va psixologik holatlar uyg‘unligida beriladi.

### Foydalilanigan adabiyotlar:

1. G‘afurov I.O‘rtada Bibixonim turar edi... // “Turon malikasi” romaniga so‘ngso‘z. T.: Kamalak-Press, 2014.
2. Botirova Sh. Hozirgi o‘zbek romanlarida badiiy psixologizm: filol.fanlari bo‘yicha fals.doktori (PhD) diss. Qarshi, 2019. – B. 24
3. Andreev A.N. Leksii po teorii literatury: Ucheb. posobie dlya studentov vuzov. - Minsk: 2012. --- B.34
4. Isaxonova Sh. Bibixonim.Turon malikalari.(tarixiy roman) / . – T.: Ma’rifat bitiklari, 2022.—480 b
5. Quronov D., Mamajonov Z., Sheralieva M. Adabiyotshunoslik lug‘ati. –T.: Akademnashr, 2010.

